



ADABIY TIL VA XORAZM SHEVASIDAGI GAP BO'LAKLARINING O'XSHASH VA FARQLI JIHLTLARI

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy
tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11124714>

ARTICLE INFO

Received: 4th April 2024

Accepted: 6th May 2024

Published: 7th May 2024

KEYWORDS

*ega, kesim, fe'l, olmosh, ot, ravish,
hol, aniqlovchi, to'ldiruvchi*

ABSTRACT

Ushbu maqolada gap bo'laklarining adabiy til va Xorazm shevalaridagi o'xshash va farqli jihatlari bilib olamiz. Sheva kundan-kunga boyib boradi. Adabiy tilda qotib qolgan bo'lishi mumkin lekin shevalarda o'zgarishlar ko'p bo'ladi.

Adabiy tilda ham shevalarda ham ot va fe'l so'z turkumiga doir bo'lgan so'zlar ko'pincha gapning bosh bo'laklari bo'lib keladi. Boshqa so'z turkumlar ham bosh bo'lak vazifasida kela oladi lekin ot bilan fe'l ko'pincha ega va kesim vazifasida keladi.

Gap o'zaro teng bog'lanishga ega so'zlar bilan ham kengayishi mumkin: Bodomlar, shaftolilar va o'riklar gulladi. Bu gapdagi bodomlar, o'riklar, shaftolilar so'z shakllari sintaktik mazmun jihatdan biri ikkinchisiga tobe bo'lmasdan, teng aloqaga kirishgan va bu aloqa teng bog'lovchilar yoki ohang vositasida amalga oshirilgan. Bunday tenglanish qatorini hosil qilgan so'z shakllar bir kengayuvchi so'z shakliga tobelanib, sintaktik jihatdan bir xil mavqega ega bo'ladi. Bunday so'z shakl uyushiq so'z shakl deyiladi. Tenglanish qatori gapda har qanday sintaktik mavqeni egallashi mumkin:

Kesim: Siz aqlli va tadbirkorsiz.

Ega: Go'yo Navoiy va Boyqaro qarshimda edi.

Hol: Suv o'ynoqlab, ko'piklanib oqardi.

To'ldiruvchi: Uqalam, daftar, ruchka oldi.

Aniqlovchi: Nasibaning va Karimaning opalari keldi.

Undalma: Aziz do'stlar, yurtdoshlar, sizlarni sog'inib yashadim.¹

¹ Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M Hozirgi O'zbek adabiy tili
TOSHKENT 2010

1. Ega bo'lib kela oladigan so'z turkumlar

- 1) Ot: Aziz o'sha kitobni o'qidi. (Aziz ashi kitobni o'qidi)
- 2) Sifat: Yaxshilar ko'paysin. (Yaxshila ko'paysin)
- 3) Son: Ikkalasi ham chiqib ketishdi. (Ikkis ham chiqib gitti)
- 4) Olmosh: Sen o'zingni maqtama. (San o'zingni maqtama)
- 5) Sifatdosh: O'qigan o'qdan o'zar. (O'qig'an o'zar)
- 6) Ravish: Ko'p so'zning ozi yaxshi. (Ko'p so'zni ozi yaxshi)
- 7) Harakat nomi: O'qish vafoli, keti jafoli. (O'qish vofoli, oxiri jafoli)
- 8) Taqlid so'z: Qars ikki qo'ldan chiqadi. (qarsi ikki qo'ldan chiqadi)
- 9) Modal so'z: Bor so'zlaydi, yo'q o'ylaydi. (Bo gaplidi, Yo'q o'ylidi)

2. Kesim vazifasida keladigan so'z turkumlar (adabiy til va shevadagi shakli)

- 1) Fe'l: Men maktabga *bordim*. (Man maktaba bordim)
- 2) Sifat: Vatan *muqaddasdir*. (Vatan muqaddasdr)
- 3) Son: Guruhimiz *oltinchi*. (Guruppamiz oltinchi)
- 4) Olmosh: Yaxshi insonlarning niyati-*shu*. (Yaxshi insonlani niyati-shu)
- 5) Ravish: Dildoradan umidim *ko'p*. (Dildoradan umidim ko'p)
- 6) Bor, yo'q so'zlari: Menda *bor*, senda *yo'q*. (Manda bo, sanda yo'q)
- 7) Ot: Yaxshining so'zi *moy*. (Yaxshini so'zi moy)
- 8) Ravishdosh: Motor *gurillab*, mashina yurdi. (Motor gurullab, moshin haydaldi)
- 9) Sifatdosh: Sherzod kecha onasiga pul *yuborgan*. (Sherzod oxshom opasini pul yuvargan)

3. Aniqllovchi vazifasida keladigan so'z turkumlar

- 1) Ot: *Daraxtlarning* bargi to'kildi. (daraxtlani yaproqi do'kildi)
- 2) Sifat: *Yaxshining* yaxshiligi tegar har yerda (Yaxshini yaxshiligi deyar har yerda)
- 3) Son: *O'ning* yarmi besh. (O'nni yarmi besh)
- 4) Olmosh: *Ukamning* olmasi juda ham shirin. (Ukamni olmasi dm mozoli)

4. To'ldiruvchi vazifasida kela oladigan so'z turkumlar

- 1) Ot: *Suvni* ming kishi ichadi. (Suvni ming kishi ichadi)
- 2) Sifat: *Yaxshini* maqtaydilar. (Yaxshini maqtidila)
- 3) Son: Beshni beshga ko'paytir. (Beshni beshga ko'paytir)
- 4) Olmosh: *Sizni* taniganlarga havasim keladi. (Sizni daniganlarga havasim galadi)
- 5) Sifatdosh: O'qiganni olim deydilar. (O'qiganni olim didila)

Sodda gapda so'zlarning tartibi adabiy tilda ham Xorazm shevasda ham bir xil bo'ladi. So'zlovchining diqqati qaratilgan narsaga qarab so'zlarning tartibida har xil o'zgarishlar bo'lishi mumkin, shunga qarab so'zning urg'usi ham o'zgarib turadi e'tibor markazida bo'lgan so'zga urg'u tushadi. Urg'uni odatda kesimdan boshqa barcha bo'laklar olishi mumkin. Ba'zan kesim ham urg'u oladi unda gap inversiya orqali o'zgargan bo'lishi kerak, ya'ni kesim gapning boshiga o'tadi.

Qo'shma gap sodda gap bilan mustahkam bog'langan, biroq undan ham struktur, ham uzatilayotgan axborot miqdori va sifati nuqtayi nazaridan farqlanuvchi sintaktik qurilma. Shu bois qo'shma gapning umumiy lisoniy mohiyati uning sodda gap bilan o'zaro munosabatida ochiladi. Lisoniy struktura jihatidan qo'shma gapning sodda gapdan farqi ma'lum darajada ravshan. Aniqlrog'i, sodda gapda shakllangan kesim bitta bo'lsa, qo'shma

gapda u birdan ortiq bo'ladi va birdan ortiq sodda gaplarning mazmun hamda grammatik jihatdan birikuvidan tashkil topadi.²

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxmatullayev Sh Hozirgi adabiy til Toshkent-2006
2. Abdullayev F A O'zbek tilining Xorazm shevalari Toshkent-1961
3. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M Hozirgi O'zbek adabiy tili TOSHKENT 2010
4. Sapayev Q Hozirgi o'zbek til TOSHKENT – 2009
5. Irisqulov M T Tilshunoslikka kirish



² Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M Hozirgi O'zbek adabiy tili TOSHKENT 2010